

## **Inklyuziv ta'limni samaradorligini oshirishda qollaniladigan metod va usullar**

Azamat Muhammadjon o'g'li Siddiqov  
Dilshoda Mansurali qizi Boymirzayeva  
Namangan davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Maqolada, shuningdek, inklusiv ta'limda bu metodlarning amaliy qo'llanilishi orqali o'quvchilarning ijtimoiy va kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishda qanday yordam berishi ko'rsatilgan. Inklusiv ta'limda metodlarni to'g'ri tanlash o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini maksimal darajada namoyish etish imkonini beradi va jamiyatda adolat va bag'rikenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu yondoshuvning samarali qo'llanilishi jamiyatda tenglikni ta'minlashga, shuningdek, o'quvchilarning ta'lim olish huquqlarini himoya qilishga yordam beradi. Ushbu ilmiy maqola inklyuziv ta'limda qo'llaniladigan metod va usullar samaradorligini o'rganishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** mahorat, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy ko'nikmalar, amaliy faoliyat, qobiliyat, differensial yondashuv, texnologiya, motivatsiya

## **Methods and techniques used to improve the effectiveness of inclusive education**

Azamat Muhammadjon o'glu Siddikov  
Dilshoda Mansurali kizi Boymirzayeva  
Namangan State Pedagogical Institute

**Abstract:** The article also shows how inclusive education can help students develop social and cognitive skills through the practical application of these methods. The correct choice of methods in inclusive education allows students to demonstrate their abilities to the maximum extent and serves to strengthen justice and tolerance in society. The effective use of this approach helps to ensure equality in society, as well as to protect the rights of students to education. This scientific article is aimed at studying the effectiveness of methods and methods used in inclusive education.

**Keywords:** skill, inclusive education, social skills, practical activities, ability, differential approach, technology, motivation

Inklyuziv ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashga binoan ta'lim metodlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etib, o'quv jarayonlarini to'liq

loyihalashtirish orqali tashkil etiladi va berilgan o'quv materiallari mazmuni ular ongiga tez, oson singdirilishiga hamda ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga erishiladi.<sup>1</sup> Inklyuziv ta'limda foydalaniladigan metodlar o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlari va o'rganish usullariga moslashtiriladi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilar individual ravishda o'z qobiliyatlarini rivojlantirishadi, bir vaqtning o'zida jamiyatda ijtimoiy moslashuv va jamoaviy ishlarni ham amalga oshiradilar. Quyida inklyuziv ta'limda eng samarali deb hisoblangan ba'zi metodlar keltirilgan:

Differensial yondashuv. Differensial yondashuv o'quvchilarni bilim darajasi, o'rganish tezligi va ehtiyojlariga qarab guruhlash va ularga mos usullarni tanlashni o'z ichiga oladi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar individual ehtiyojlariga mos bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Afzalliklari: O'quvchilarning individual ehtiyojlari hisobga olinadi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga mos material va topshiriqlarni taqdim etish osonlashadi. Har bir o'quvchi o'ziga mos tezlikda ta'lim oladi. Jamoaviy va guruhli o'qitish Guruhli ishlash usuli inklyuziv ta'limda keng qo'llaniladi. Bu metod yordamida o'quvchilar kichik guruhlarda ishlash orqali bir-birlariga yordam beradilar. Bu, ayniqsa, ijtimoiy va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Afzalliklari: O'quvchilar bir-biriga yordam berish orqali o'qish jarayoniga jalb qilinadi. Ijtimoiylashuv ko'nikmalari rivojlanadi va o'quvchilar bir-birlarini tushunishga o'rganadilar. Turli ehtiyojli o'quvchilar bir-biridan ko'nikmalar o'rganadi. Rolli o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar Amaliy mashg'ulotlar va rolli o'yinlar o'quvchilarning faol ishtirokini oshirishga yordam beradi. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilar o'rganayotgan mavzuni real vaziyatlar orqali sinab ko'rishlari mumkin. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar uchun vizual va sensor tajriba olishda bu metodlar samarali hisoblanadi. Afzalliklari: O'quvchilar real vaziyatlarda bilimlarini amalda qo'llash imkoniga ega bo'ladi. Ko'rgazmali va qo'shimcha yordam orqali o'quvchilar mavzuni yaxshiroq tushunadilar. Kommunikatsiya va ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi. Texnologiyaga asoslangan ta'lim usullari Inklyuziv ta'limda texnologiyadan foydalanish imkoniyati cheklangan o'quvchilarga bilim olish jarayonini yengillashtiradi. Maxsus dasturlar va ilovalar yordamida vizual, eshituv va amaliy mashg'ulotlar tashkil qilinadi. Shu bilan birga, texnologiyalar har bir o'quvchining o'ziga mos usulda o'qishini ta'minlaydi.

Afzalliklari: Moslashtirilgan vositalar imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulay sharoit yaratadi. Har bir o'quvchi o'z tezligida o'qish imkoniga ega bo'ladi. O'qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Qo'llab-quvvatlash va murabbiylik Qo'llab-quvvatlash va murabbiylik inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarni psixologik, pedagogik yoki ijtimoiy jihatdan

<sup>1</sup> Inklyuziv ta'lim. Gospital Pedagogika. N. P. Goipova Namangan-2024. 183- bet

qo'llab-quvvatlash orqali ularning ta'lim jarayonida qiyinchiliklarni yengishiga yordam beriladi.

**Afzalliklari:** O'quvchilar o'zlarini qulay va xavfsiz his qiladi. O'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va jamiyatga moslashishini baholash. Guruhli ishlash metodlari bu borada eng samarali hisoblanadi, chunki o'quvchilar bir-birlariga yordam berish orqali o'zaro munosabatlarni o'rnatadilar va birgalikda muammolarni hal qilishadi. **Motivatsiya va faollik:** Inklyuziv ta'lim metodlari o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Motivatsiya o'quvchilarning o'zlarini ishonchli his qilishlariga yordam beradi, bu esa ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

O'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va jamiyatga moslashishini baholash. Guruhli ishlash metodlari bu borada eng samarali hisoblanadi, chunki o'quvchilar bir-birlariga yordam berish orqali o'zaro munosabatlarni o'rnatadilar va birgalikda muammolarni hal qilishadi. **Motivatsiya va faollik:** Inklyuziv ta'lim metodlari o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Motivatsiya o'quvchilarning o'zlarini ishonchli his qilishlariga yordam beradi, bu esa ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'limda qo'llaniladigan metod va usullar samaradorligini oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

Metodlarni kombinatsiya qilish - Differensial yondashuv va guruhli o'qitishni birlashtirish, texnologiyalardan qo'shimcha foydalanish orqali darslarni qiziqarli va mazmunli qilish.

Individual yondashuvni takomillashtirish - Har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos individual ta'lim rejasini ishlab chiqish.

Qo'llab-quvvatlash va murabbiylik tizimini kuchaytirish - Psixologik yordam, murabbiylik va maslahat xizmatlarini kengaytirish.

Texnologiyalardan foydalanishni oshirish - Maxsus dasturlar va qurilmalar yordamida imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulay sharoit yaratish.

Inklyuziv ta'limda samarali metodlarni qo'llash orqali barcha o'quvchilarning ta'lim jarayoniga jalb etilishi, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga sharoit yaratiladi. Shu tarzda, bu usullarni kengroq qo'llash natijasida inklyuziv ta'limning ijtimoiy va akademik samaradorligi oshiriladi va barcha bolalarga teng imkoniyat yaratish maqsadiga erishiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Muhammadjon o'g'li, S. A. (2024). IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA: Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li. Лучшие интеллектуальные исследования, 22(5), 48-54.

2. Muhammadjon o'g'li, S. A. (2024). AQLI ZAIFLIKNING TURLARI, BELGILARI VA DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI. PEDAGOGS, 52(1), 154-159.
3. qizi Mashhura, Z. B. (2024). TIFLOPEDAGOGIKA VA TIFLOPSIXOLOGIYANING UMUMIY MASALALARI. Results of National Scientific Research International Journal, 3(2), 170-177.
4. Qambaraliyeva, D. A. Q., & Siddiqov, A. M. O. G. L. (2024). Rivojlanishdan orqada qolgan bolalar nutqini o'stirish. Science and Education, 5(2), 525-531.
5. Otajonovna, M. M. (2023). BOLALAR SEREBRAL FALAJIDA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISHLARNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Uzbek Scholar Journal, 19, 9-12.
6. Камалова, А. (2021). THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION. Экономика и социум, (3-2), 12-14.
7. Jo'Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. Science and Education, 5(3), 490-494.
8. Azimova, O. A. Q. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarida kasbiy mahorati. Science and Education, 4(6), 718-722.
9. Kamolova, A. (2022). The Scientific and Theoretical Foundations of Studying the Sources of Popular Pedagogy in Educating the Younger Generation. Science and Education" Scientific Journal/Impact Factor, 3, 590-592.
10. Kamolova, A. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasining manbalarini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Fan va ta'lim" Ilmiy jurnali/Impact Factor , 3 , 590-592.
11. Xayrullayev, M. M. O. G. L., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Kimyo fanlarini o 'qitishda rolli o 'yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. Science and Education, 5(11), 187-190.
12. Kamolova, A. O., & Akramjonova, F. A. (2024). PEDAGOGIK FAOLIYAT JARAYONLARIDA INNAVATSION TA'LIM JARAYONLARI ORQALI PEDAGOGLAR SALOMATLIGINI SAQLASH. Экономика и социум, (6-1 (121)), 302-305.